
Reja ortig'i bilan uddalandi

Buvayda tumanidagi "Soyibjon Solihboy" fermer xo'jaligi a'zolari tumanda birinchilardan bo'lib davlatga g'alla topshirish shartnoma rejasini ortig'i bilan bajarishga muvaffaq bo'lishdi.

Bu yil fermer xo'jaligi a'zolari 28 gektar yerda g'allaning "Hisorak" navini parvarishlab, belgilangan agrotexnik tadbirlarni sifatli bajarishdi. Natijada g'alla maydonlarida mo'l hosil yetishtirildi va qisqa ish kunida davlat omborlariga 91 tonnadan ziyod elimizning rizq-nasibasi yetkazib berildi.

Ayni kunlarda g'alladan bo'shagan maydonlarga kam suv talab etadigan takroriy ekinlar ekish uchun yerni tayyorlash ishlariga kirishildi,-deydi fermer xo'jaligi rahbari Bobomurod Enazarov. - Bu yil dukkakli ekinlar va kundalik zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish hajmini oshirish hamda eksportni yo'lga qo'yishni rejalashtirganmiz.

Botir Madiyorov

2018-06-30 11:04:13